



**THE EVOLUTION OF THE "IDEAL CITIZEN" CONCEPT IN
THE THEORY OF STATE AND LAW: HISTORICAL
EXPERIENCE AND THE MODERN MODEL OF
UZBEKISTAN**

Suyarova Shaxzoda

Samarkand State University

Faculty of Law, 1st-year Student of Jurisprudence

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20795134>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

Citizenship, patriotism, legal status of an individual, theory of state and law, social contract, legal culture, constitutional patriotism.

ABSTRACT

This article conceptually analyzes the socio-legal nature of the concept of "citizen" through the prism of the theory of state and law, the dynamics of its transformation within the historical context, and the intrinsic connection between a citizen and the "homeland." The study examines the evolution of the legal status of an individual from the ancient era, through social contract theories, to modern democratic models. Furthermore, the paper elucidates the criteria of patriotism as the moral-psychological foundation of the institution of citizenship within the framework of legal duties and the concept of "constitutional patriotism."

**DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASIDA IDEAL FUQARO
KONSEPSIYASINING EVOLUTSIYASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY
O'ZBEKISTON MODELII**

Suyarova Shaxzoda

Samarqand Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti yurisprudensiya 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20795134>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

Fuqarolik, vatanparvarlik, shaxs maqomi, davlat va huquq nazariyasi, ijtimoiy shartnoma, huquqiy madaniyat, konstitutsiyaviy vatanparvarlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat va huquq nazariyasi prizmasi orqali "fuqaro" tushunchasining sotsio-huquqiy tabiati, uning tarixiy kontekstdagi o'zgarish dinamikasi va fuqaroning "vatan" bilan uzviy bog'liqligi konseptual jihatdan tahlil qilinadi, shaxs huquqiy maqomining antik davrdan boshlab, ijtimoiy shartnoma nazariyalari orqali zamonaviy demokratik modellargacha bo'lgan evolutsiyasi o'rganiladi. Maqola fuqarolik institutining ma'naviy-psixologik asosi sifatida vatanparvarlik mezonlarini huquqiy burchlar va "konstitutsiyaviy vatanparvarlik" konsepsiyasi doirasida ochib beradi.

Kirish

Fuqarolik turli adabiyotlarda shaxsning muayyan davlat bilan bilan

doimiy huquqiy aloqasi, o'zaro huquq va majburiyatlar majmuidir, deb ta'riflanadi. Demak, fuqaroni biz



muayyan davlat bilan huquqiy aloqada bo'lgan, uning qonunlariga bo'ysunadigan, davlat himoyasida turuvchi hamda o'zaro huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxs deb tushunishimiz mumkin. Qiziq, barcha davrlarda ham bu xuddi shunday bo'lganmi?

Tarixiy-huquqiy evolutsiya.

Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqida turli nazariyalar turli olimlar tomonidan ilgari surilgan va ijtimoiy shartnoma nazariyasi ularning eng ahamiyatga moliklaridan biridir. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi davlatlarning paydo bo'lishini Oliy Iloh (Teokratik nazariya) ya'ni xudoning kuchi, irodasiga bog'liq holda emas, balki insonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv (social contract) orqali tushuntiradi. Ya'ni insonlar o'zlarining xavfsizligi, erkinligi va huquqlarini ta'minlash maqsadida davlatni barpo etganlar. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi namoyondalari : Tomas Gobbs, Jon Lokk, Jan-Jak Russo,

Makiavelli kabilarning barchasi davlatning paydo bo'lishida ijtimoiy shartnoma nazariyasini ilgari sursalar-da, ularning yondashuvlarida sezilarli tafovutlarni ko'rishimiz mumkin.

Tomas Gobbs - 1588-1679-yillarda yashab o'tgan ingliz faylasufi - o'zining "Leviafan" asarida insonlarning qanday qilib kelishuv asosida davlat barpo etganliklari va "fuqaro"ga aylanganlarini yozgan. U davlat paydo bo'lishidan oldingi davrni ya'ni tabiiy holatni "Hamma oliy qatlamlarning hammaga qarshi urushi" (Bellum omnium contra omnes) deb ta'riflaydi. Bu davrda qonunlar va davlat bo'lmagani uchun odamlar mutlaq erkin bo'lgan, ammo bu erkinlik doimiy qo'rquvni

keltirib chiqargan. Odamlar doimiy o'lim qo'rquvidan qutilish va xavfsizlikni ta'minlash uchun o'zlarining cheksiz huquq va erkinliklarining bir qismini bir shaxsga (monarga) yoki majlisga topshirishga kelishishadi. Bu "Ijtimoiy shartnoma" (Social Contract) deb ataladi. Aynan mana shu shartnoma tuzilgan paytdan boshlab inson "tabiiy tushuncha"dan chiqib, davlat qonunlariga bo'ysunuvchi "fuqaro" maqomini oladi. Gobbs davlatni Injildagi ulkan dengiz maxluqi - Leviafan bilan qiyoslaydi. U barcha odamlarning irodasini birlashtirgan

"sun'iy odam" (Artificial Man)dir deb ta'kidlaydi.

Jon Lokk Gobssdan keyin yashagan bo'lsa-da, uning davlat va fuqaro haqidagi qarashlari Gobbsnikidan tubdan farqlanadi. Gobbs davlat paydo bo'lishidan oldingi tabiiy holatni urush, qo'rquv deb ta'riflagan edi. Lokk esa tabiiy holat - tinchlik, tenglik va odamlarning o'zaro hamkorligi davridir, deb aytadi. Gobbs bo'yicha, odamlar davlat (Leviafan) foydasiga o'z huquqlaridan butunlay voz kechadi va fuqarolar davlatga so'zsiz bo'ysunishi shart bo'lsa, Lokk - insonning tabiiy huquqlari (hayot, erkinlik, mulk) daxlsiz deb hisoblaydi. Agar davlat bu huquqlarni buzsa, fuqarolar hukumatni ag'darib tashlash (inqilob qilish) huquqiga ega.

Jan-Jak Russo ham ijtimoiy shartnoma nazariyachisi, ammo uning xulosalari tamoman boshqacha. Gobbs insonni tabiatan yovvoyi va xudbin desa, Russo

"Inson erkin tug'iladi, lekin hamma yerda u zanjirlangan" deb hisoblagan.



Russoning fikricha, inson tabiatan yaxshi bo'lgan, uni xususiy mulk va davlat tizimi buzgan. Gobbs hokimiyatni bir shaxsga topshirishni yoqlasa, Russo hokimiyatni xalqning o'zida (umumiy iroda – general will) asosida qolishi kerakligini, ya'ni tog'ridan-to'g'ri xalq hokimiyatchiligini yoqlaydi.

Nikolo Makiavelli Gobbsdan ancha oldin (Uyg'onish davrida) yashagan, ammo ularning inson tabiati haqidagi qarashlari juda o'xshash. Har ikki olim ham insonni tabiatan noshukur, qo'rqoq, xudbin va ochko'z deb hisoblaydi. Makiavelli o'zining "Hukmdor" asarida tartibni saqlash uchun hukmdor qattiqqo'l bo'lishi, kerak bo'lsa kuch ishlatishi lozimligini aytadi. Gobbs ham tartibsizlik (anarxiya)dan ko'ra qattiqqo'l monarxiya yaxshiroq deb hisoblaydi.

"Ijtimoiy shartnoma" insonni "fuqaro"ga aylantirdi va unga bir vaqtning o'zidada yangi huquqlar va majburiyatlar yukladi. Ya'ni shartnomadan kelib chiqib "Davlat" instituti fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashi kerak edi va buning evaziga fuqarolar davlatga, uning qonunlariga bo'yunish majburiyatini oldilar. Yuqorida biz turli olimlarning qarashlarini solishtirdik. Ularni biz g'oyaviy guruhlariga ajratishimiz mumkin. Ya'ni "Avtoritarizm tarafdorlari" (Gobbs va

Makiavelli) va "Liberal-demokratiya tarafdorlari" (Lokk va Russo) ga. Ularning yondashuvlarini davlat modellariga qiyoslasak, ularni shunday nomlash mumkin bo'ladi: "Davlat-markaziy model" (1-guruh) va "Inson-markaziy model" (2-guruh). Birinchi guruh davlatni tartibsizlikni

jilovlovchi kuch va majburlash apparati sifatida ko'radi. Davlatning maqsadi adolat yoki axloq emas, balki qat'iy tartib, xavfsizlik va barqarorlikni saqlashdir. "Hukmdordan yaxshilik emas, qat'iyat kutiladi. Tartibsizlikdan ko'ra qattiqqo'l rejim afzal". Fuqaro esa davlatga so'zsiz bo'ysunishi kerak bo'lgan qatlam. Ularning huquqlari xavfsizlik evaziga cheklanadi. Shu bilan birga ular davlat himoyasida bo'ladilar. Ikkinchi guruh esa davlatni inson huquqlarini himoya qiluvchi va xalq irodasini bajaruvchi xizmatchi sifatida ko'radi. Davlatning asosiy vazifasi insonning tabiiy huquqlarini himoya qilish va umumiy farovonlikni ta'minlashdir. Fuqaro – davlatning xo'jayini. Agar davlat o'z vazifasini bajarmasa, fuqarolar uni o'zgartirish yoki ag'darib tashlash huquqiga ega. "Davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak, xalq davlat uchun emas". Hozirgi kun bilan bu ikki qarashni solishtiradigan bo'lsak, jadallashayotgan zamonda demokratiya, inson huquqlari, manfaatlari yuksak qadr topmoqda va butun jahon bu uchun harakat qilmoqda. So'nggi yillarda Jon Lokk va Russo ta'limoti ko'pgina davlatlar huquqiy tizida keng qo'llanilayotganini yaqqol guvohi bo'lyapmiz. Avtoritar davlar demokratik davlatlarga qaraganda kam uchrasa-da, ularga misol qilib bir qancha davlarni keltirishimiz mumkin. Hatto ularning ichida dunyoning yetakchi, rivojlangan davlatlarini ham uchratamiz. Masalan, Xitoy (XXR). Xitoy xalq respublikasining boshqaruv modeli Gobbsning va

Makiavellining g'oyalariga eng ko'p mos keladigan zamonaviy tizimlardan biridir. Xitoy Kommunistik partiyasi jamiyatga iqtisodiy o'sish, xavfsizlik va



tartibni kafolatlashni o'z zimmasiga oladi, uning evaziga xalqdan siyosiy cheklovlar va mutlaq bo'ysunishga rozi bo'lishni talab qiladi. Bu – klassik ijtimoiy shartnomadir. Davlat har bir fuqaroning xatti-harakatini nazorat qiladi. Bugungi Xitoyda bu g'oya Ijtimoiy kredit tizimi (Social credit system) va sun'iy intellektga asoslangan yalpi kameralar orqali hayotga tadbiiq etilgan. Shimoliy Koreya(KXDR) rejimi Gobbs tasvirlagan mutlaq hokimiyat modelining bugungi kunda dunyodagi eng radikal, chekka ko'rinishidir deb atasak mubolag'a bo'lmaydi: Gobbsning fikricha Levafanning (hukmdorning) irodasi fuqarolar uchun oliy qonun va axloq mezoni bo'lishi kerak. Shimoliy Koreyada Kim Chen In (va uning sulolasi) irodasi qonundan ham ustun turadi. Gobbs odamlarni davlat atrofida birlashtirish uchun ularda o'lim va tashqi dushman qo'rquvi bo'lishi kerakligini aytgan, KXDR hukumati o'z xalqini o'n yillardan beri "AQSh va uning ittifoqchilari ertaga hujum qiladi" degan vahima bilan ushlab turadi. Odamlar tashqi "chaos"dan qo'rqanidan ichki "Leviafan"(rejim) zulmiga rozi bo'lishadi. Lekin Gobbs nazariyasi bilan

KXDR rejimining farqli tarafi shunda-ki, Gobbs davlatni odamlarning o'z ixtiyori bilan (shartnoma asosida) xavfsizlik uchun tuzgan deb hisoblaydi, Shimoliy

Koyeyadagi rejim esa fuqarolar xohishi emas, balki qat'iy repressiya, mafkuraviy miya yuvish va totalitar majburlash tizimiga asoslangan. Gobbsga ko'ra, fuqaroga agar davlat uning hayotini himoya qila olmasa (masalan, ochlikdan o'lishga yo'l qo'ysa), bo'ysunmaslik huquqi mavjud. KXDR esa

bu huquqni tan olmaydi. Jon Lokk va Jan-Jak Russo go'yalariga asoslangan inson-markaziy davlat modelini bugungi kunda shveysariya siyosiy tizimida hamda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining konseptual asoslarida ko'rish mumkin. Tomas Gobbs davlatni jazolovchi va bo'ysundiruvchi kuch sifatida ta'riflagan bo'lsa, Lokk va Russo modeliga tayanadigan zamonaviy demokratik davlatlar inson huquqlari va xususiy mulk daxlsizligini(O'zbekiston misolida) hamda xalqning to'g'ridan-to'g'ri irodasini(Shveysariya misolida) davlat mavjudligining bosh sharti deb hisoblaydi. Shveysariyada mamlakat prezidentining shaxsiy hokimiyati deyarli sezilmaydi (Prezident har yili 7 kishilik Federal kengash a'zolari ichidan almashib turadi). Davlat xalq ustidan hukmronlik qiluvchi "Leviafan" emas, balki jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi shaffof tashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning huquq va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanishi, inson qadri hamma narsadan ustunligi belgilangan. Bu Jon Lokkning "Davlat insonlarning tabiiy huquqlarini (hayot, erkinlik, mulk) himoya qilish uchun tuzilgan shartnomadir" degan g'oyasining zamonaviy ifodasidir.

Shveysariyada davlat xalq irodasiga bo'ysunadi, ammo fuqaroning mamlakat oldidagi majburiyatlari dunyodagi eng qat'iy tizimlardan biridir: Shveysariyada har bir erkak fuqaro uchun majburiy harbiy xizmat mavjud. Xizmatdan keyin ham erkaklar o'z qurollarini uyda saqlashadi va mazmunan harbiy yig'inlarga borishadi. Fuqaro davlat unga bergan erkinlikni



shaxsan o'zi qurol bilan himoya qilishga majbur. To'g'ridan-to'g'ri demokratiya esa fuqarodan doimiy ravishda qonun loyihalarini o'qish, tahlil qilish va referendumlarda ovoz berishni talab qiladi. Bu yerda passiv yashash- vatan oldidagi burchga mas'uliyatsizlik hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida davlatning majburiyatlari bilan birga, fuqaroning ham vatan oldidagi aniq pozitsiyasi va burchlari huquqiy mustahkamlangan: O'zbekiston Respublikasini himiya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosing burchidir(64-modda). Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi hamda atrof-muhitga, tabiatga va tarixiy merosga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi shart(61-61-63-moddalar).

Davlat ijtimoiy dasturlarni bajarishi uchun fuqaro o'zining iqtisodiy va ekologik burchini bajarishi lozim.

Bizga shu ma'lum bo'ldiki, "fuqaro"ning huquqiy maqomi har qaysi davlatda va har qaysi davrda har xil. Lekin bir narsa aniqki, "fuqaro" har doim davlat himoyasidagi shaxs va ma'lum huquqlarga va u bilan mutanosib burchlarga ham ega. Hozirda davlatlardan xalqaro hamjamiyatlar nafaqat davlatga daxldor bo'lgan "fuqarolar"ning huquqlarini himoya qilishni, balki boshqa davlat fuqarolari, ya'ni chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ya'ni apatridlarning huquqlariga (ayniqsa tabiiy huquqlariga) befarq bo'lmaslikni talab qilmoqdalar. Ular ham huquqning teng huquqli subyektini hisoblanadilar, faqat ular ma'lum mamlakatning o'z fuqarolariga tegishli bo'lgan huquqlardangina (masalan, saylanish va saylovlarda

ishtirok etish huquqi) foydalana olishmaydi.

E'tiborimizni endi Antik davlatlarga qaratadigan bo'lsak, ko'pgina Qadimgi Rim, Afina kabi yirik davlatlar quldorlik davlatlari bo'lganini ko'ramiz. Lekin qullar n qullar jamiyatning butunlay huquqsiz qatlami hisoblanib, huquqning subyektini emas, obyektini sifatida ko'rilgan. Ya'ni qulga "ashyo" kabi muomalada bo'lingan. Qul butun umr shu mamlakatda yashasa-da "fuqaro" maqomiga ega bo'lmagan. Xo'sh, quldorlikning kelib chiqishiga nima sabab bo'lgan? Qadimgi Rim va Afinada yirik yer egaligi (latifundiyalar) va konchilik rivojlandi. Bunday yirik ob'yektlarda ishlash uchun juda ko'p sonli va arzon ishchi kuchi kerak edi. Buni faqat qullar mehnati hisobiga ta'minlash mumkin bo'lgan; Ibtidoiy davrlarda urushda asir tushgan dushmanlar odatda o'ldirilgan(chunki ularni boqish iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lgan). Iqtisodiy yuksalishlardan so'ng esa, asirlarni o'ldirgandan ko'ra, ularni tirik qoldirib, og'ir ishlarga majburlash (ya'ni qulga aylantirish) ancha foydaliroq ekanligi ma'lum bo'lgan; Xususiyl mulkning shakllanishi jamiyatni boylar va kambag'allarga ajratdi. O'z davlatining fuqarosi bo'la turib, boylardan olgan qarzini qaytara olmagan kambag'al dehqonlar va hunarmandlar o'z qarzi evaziga xo'jayinning quliga aylangan (garchi Afinada

Solon islohotlari, Rimda esa ma'lum qonunlar bilan o'z fuqarolarini qarzi evaziga qul qilish keyinchalik taqiqlangan bo'lsa-da, ilk davrlarda bu juda keng tarqalgan edi); Antik davr tafakkurida odamlarning tabiatan teng emasligi normal holat hisoblangan.



Masalan, Aristotel o'zining "Siyosat" asarida ba'zi odamlar tabiatan aqliy mehnatga va boshqarishga (xo'jayin bo'lishga), boshqalar esa faqat jismoniy mehnatga va bo'ysunishga (qul bo'lishga) loyiq deb yozgan. Ya'ni quldorlik o'sha davr odamlari tushunchasida tabiat qonunidek qabul qilingan.

Bugungi kun zamonaviy demokratik islohotlar natijasida asosiy e'tibor "inson qadri"ga qaratilmoqda. Endi insonlarning jinsi, irqi, millati dini va hatto fuqaroligidan qat'iy nazar tabiiy huquqlarini hech qanday tarzda cheklash mumkin emas. Shu bilan birga fuqarosizlikni qisqartirish bo'yicha ham islohotlar haligacha amalga oshirilmoqda. Bunga tamal toshini BmT Bosh Assambleyasi tomonidan

1961-yilda qabul qilingan "Fuqarosizlikni qisqartirish to'g'risida"gi Konvensiya qo'ydi. Unga ko'ra: har qanday ahdlashuvchi davlat o'zining hududida tug'ilgan har qanday shaxsga o'z fuqaroligini taqdim etishi kerak, aks holda u apatrid bo'ladi.

Bunday fuqarolik quyidagicha taqdim etiladi: a) qonunga ko'ra tug'ilganida, yoki b) milliy qonunda belgilangan shaxs yoki uning nomidan iltimosnoma berganda. Mazkur moddaning 2-bandi qaroriga rioya qilish sharti bilan, hech bir bunday iltimosnoma rad etilishi mumkin emas. Shuningdek ushbu konvensiyaning 2-moddasida har qanday Ahdlashuvchi davlat hududida topilgan bola, qarshi tarafning dalillari yo'qligi sababli, shu hududda mazkur davlat fuqaroligiga ega bo'lgan otaonalardan tug'ilgan deb hisoblanishi kerak. Ushbu normalar Antik davr qarashlari bilan hozirgi

zamon zamonaviy qarashlarining tubdan farq qilishining yaqqol namunasidir. Ya'ni endilikda "fuqaro" maqomiga, huquqiga faqatgina ma'lum toifalar, yoki insonlar istisno bilan ega bo'lmay, barcha insonlar fuqarolikka ega bo'lish huquqiga egalar. O'zbekiston Respublikasi ham o'z navbatida 2020-yil "O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida"gi qonunini yangi tahrirda qabul qildi. Ushbuda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lish, undan chiqish, fuqarolikni yo'qotish va to'xtatib turish asoslari batafsil yoritilgan. Qonunning 6-moddasida 2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

O'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

Ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bola xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

Ushbu Qonun 5-moddasining ikkinchi qismida hamda mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan faktlarni



tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchi ushbu faktlarni sud tartibida aniqlashi mumkin, degan qoida mustahkamlangan. Bu esa davlatning fuqarosizlikni qisqartirish va mamlakatda istiqomat qilayotgan insonlarga teng huquqiy maqom amalda bo'lishini ta'minlash borasidagi islohotlaridandir.

Biz maqolada shartnoma tuzilgach, davlat boshqaruvi va fuqaroning roli qanday bo'lishi borasida fikrlarni tahlil qildik. "Ideal fuqaro"ning portreti esa turli davrlarda va turli qarashlarda har xil. Gobbs davlat qonunlariga so'zsiz, mutloq bo'ysununchi, isyon ko'tara olmaydigan "ideal fuqaro" portretini yaratsa, Jon Lokk – o'z huquqlarini biladigan, qonun doirasida harakat qiluvchi, mulkini va erkinligini himoya qiluvchi faol shaxsni "Ideal fuqaro" sifatida ko'radi. Russoning fikricha esa jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yuvchi, umumiy irodaga bo'ysununchi vatanparvar shaxs haqiqiy "Ideal fuqaro"dir. (U passiv soliq to'lovchi emas, balki davlat taqdiriga daxldor faol subyektdir). Xo'sh, bugungu kun "Ideal fuqaro"sining portreti qanday bo'lishi lozim? Amerikalik siyosatshunos faylasuf Jon

Rolzning fikrlariga ko'ra zamonaviy "ideal fuqaro" portreti shunday ko'rinishga ega: "ideal fuqaro"-jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab quvvatlashga moyil bo'lgan va adolat prinsiplarini huquqiy burch sifatida qabul qiladigan "ijtimoiy mas'uliyatli" shaxsdir. Fuqaro albatta, davlat qonunlariga rioya qilishi va ularni hurmat qilishi, yaxshi xulqqa va huquqiy

ong va madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar.

Davlat va huquq nazariyasida "ideal fuqaro" konsepsiyasining ijtimoiy shartnoma nazariyalari hamda zamonaviy konstitutsiyaviy vatanparvarlik modellarigacha bo'lgan tarixiy-huquqiy evolutsiyasini tahlil qilish quyidagi konseptual xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. "Ideal fuqaro" portreti shunchaki qonunlarga mexanik ravishda bo'ysununchi passiv subyekt emas. U sotsio-huquqiy tabiatiga ko'ra, o'z huquqlarini chuqur anglaydigan, davlat bilan shartnomaviy majburiyatlarini bajaradigan hamda o'z Vatanning taqdiri uchun ma'naviy psixologik daxldorlikni his qiluvchi faol shaxsdir.

2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar fuqaro va davlat munosabatlarini mutlaqo yangi – "inson-jamiyat-davlat" tamoyili asosiga qurdilar. Yangilangan Konstitutsiyada "Ijtimoiy davlat" prinsiplarining mustahkamlanishi Jon Rolz kabi mutafakkirlar ilgari surgan ijtimoiy adolat hamda konstitutsiyaviy vatanparvarlik mezonlarining milliy qonunchilikdagi amaliy ifodasidir.

3. Bugungi raqamlashtirish davrida O'zbekiston fuqarosining huquqiy madaniyati electron demokratiya vositalaridan(my.gov.uz, lex.uz) unumli foydalanish, qonun ijodkorligi va jamoatchilik nazoratida faol ishtirok etish qobiliyati bilan belgilanmoqda.

Amaliy takliflar: Yosh avlod yuridik ongini yuksaltirish va huquqiy tarbiyani jadallashtirish uchun ta'lim muassasalarida "Konstitutsiyaviy vatanparvarlik va raqamli huquq"



interaktiv dasturlarini joriy etish; Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida mahalliy darajadagi qarorlarni qabul

qilishda raqamli petitsiyalar va electron so'rovnomalar tizimini yanada takomillashtirish.

References:

1. **Aristotel.** *Siyosat.* – Toshkent: "O'zbekiston", 2002. .
2. **BMT Bosh Assambleyasi.** "Fuqarosizlikni qisqartirish to'g'risida"gi konvensiya 30.08.1961
3. **Habermas, J.** *Citizenship and National Identity: Some Reflections on the Future of Europe.* // Praxis International, 1992. – No. 12(1).
4. **Hobbes, T.** *Leviathan.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
5. **Locke, J.** *Two Treatises of Government.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
6. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
7. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni (Yangi tahriri). – O'RQ-610-son, 13.03.2020.
8. **O'zbekiston Respublikasining Milliy Qonunchilik tizimi:** Lex.uz
9. **Platon.** *Davlat (Respublika).* – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2014.
10. **Rawls, J.** *A Theory of Justice.* – Harvard: Harvard University Press, 1971.
11. **Rousseau, J.-J.** *The Social Contract.* – London: Penguin Books, 2004.
12. **Saidov, A. X.** *Davlat va huquq nazariyasi.* – Toshkent: "Adolat", 2018.